

.....

ERKIN VOHIDOV BADIY MAHORATIGA DOIR

Homidjon Mamadov

akademik Bobojon G'afurov nomidagi DTM Xo'jand DU dotsenti

Baxtiyor Fayzulloev

akademik Bobojon G'afurov nomidagi DTM Xo'jand DU dotsenti

Annotatsiya. mazkur maqolada o'zbek tilida ma'no ko'chishning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan metafora hodisasining lingvistik va poetik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Metaforik ma'no ko'chishning asosini tashkil etuvchi o'xshashlik prinsipi tashqi va ichki o'xshashlik mezonlari asosida yoritilib, ularning til birliklarining semantik taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: metafora, ma'no ko'chishi, nom ko'chishi, o'xshashlik prinsipi, tashqi o'xshashlik, ichki o'xshashlik, lingvistik metafora, poetik metafora.

Ma'lumki, ma'noning o'xshashlik prinsipi asosida ko'chishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. O'xshashlik ikki jihatdan bo'lishi mumkin: Birinchisi: Tashqi o'xshashlik, ikkinchisi: Ichki o'xshashlik. Tashqi o'xshashlik asosida ko'chirilgan ma'nolar: buloqning ko'zi, choynakning og'zi, tog'ning beli, dala etagi, ariq labi, suvning beti, ko'chaning boshi va b., inson tana a'zolarining tashqi ko'rinishiga nisbatan metafora usulda nom ko'chirilgan. Bunda so'zning metaforik qo'llanishi borliq hodisalarining ma'lum bir tashqi belgi, xususiyat-larini obrazli anglatish taqozasi bilan sodir bo'lgan. Badiiy adabiyot-dagi obrazlilik esa har qanday metaforik qo'llashga xosdir.

Tashqi o'xshashlik predmet (keng ma'noda) va uning belgi, harakat-holatlariga nisbatan qiyoslangan holda sodir bo'ladi. Masalan: Erkin Vohidovning "Manzara" she'rida insonga xos belgi-harakatlar bulutdan yomg'irning yog'ilishiga, qushlar uchib ketgach, majnuntol shoxining yengillashib ko'tarilishiga nisbatan berilgan:

Rahmi kelib bulutning yig'lab to'kar yoshini,

Qushlar qochar, majuntol ko'taradi boshini [1;6].

Rahim qilmoq, yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq, bosh ko'tarmoq kabilar insonga xos harakat – holatlar bo'lib, ular badiiy tasvirda tabiat manzarasiga ko'chirilgan. Yanada aniqrog'i, bunday hodisa mumtoz she'riyatda tashxis (jonlantiish) badiiy san'ati nomi bilan atalgan. "Tashxis hayvonot va nobotot, hatto jonsiz tabiat olamidagi ashyolarga inson uchun xos bo'lgan xususiyatlarni(kechinma his-tuyg'u, hatti-harakat) baxsh etib tasvirlashdan iborat" [2; 239]. Ichki o'xshashlik predmet – ob'yekt va uning harakati nomlarini xarakterlovchi so'zlar ongli ravishda insonga nisbatan uning tabiati va harakati belgilarini tavsiflashga mo'ljallab ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan insonga nisbatan: iflos, yaramas, jasur, saxiy, sher, arslon, bulbul, to'ti, eshak, it, chayon, qarg'a, ilon, maxov, maraz, pari, farishta, sayramoq, akillamoq, bo'kirmoq b. kabi leksik birliklardagi o'xshashlik tashqi belgilar asosida emas, balki aql- idrok xarakter-xususiyat va shu asosida hosil bo'luvchi belgi-harakatlar natijasida yuz beradi.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,

Bulbul kuyin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,

Men ham to'ti bo'lib qolaman [9; 95].

She'riy parchadagi kuy-sayrash, to'ti-go'yolik holatlari tashqi o'xshashlik asosida emas, balki ichki o'xshashlik asosida metafora usulida nom ko'chirilgandir. Metafora usulida nom ko'chishi ikki xil ko'rinishga ega: birinchidan, ba'zi metaforalar asosida vujudga kelgan nom ko'chish hodisasi barqaror-turg'un bo'lsa, ikkinchidan, ba'zilari o'zgaruvchan – beqarordir. Ana shu xususiyatlariga ko'ra metaforalar ikki turga ajratilgadi: 1. Lingvistik metafora, 2. Poetik metafora.

Lingvistik metafora. Tilshunoslik fanida qo'llanuvchi, umuman xalq ongiga singib ketgan lingvistik metaforalar ifoda asosiga ko'ra poetik metaforaga o'xshasada, tildagi o'rniga ko'ra ulardan farq qiladi. Lingvistik metafora asosida nom ko'chish usullari ma'nolari o'zgaruvchan emas, barqaror, doimiy xarakterga ega bo'ladi. Ularning ko'chma ma'noda ekanligi sezilmaydi ham. Masalan insonning tana a'zolarini ifodalovchi: bosh, tish, og'iz, soch, qosh, peshona, bo'yin, qo'l, oyoq, qorin va b., predmetlar uchun to'g'ridan - to'g'ri nom bo'lib sanalishi mumkin.

Masalan, oyoq leksemasi: so‘rining oyog‘i, mashinaning oyog‘i, stulning oyog‘i birikmalarida shu predmetlarning ma‘lum bir qismi uchun maxsus nom bo‘lib, odamning oyog‘iga nisbatan qo‘llanilgan va lingvistik metafora usulida nom ko‘chirilgan. Insonning oyog‘i shakl va funksional o‘xshashligi tufayli yuqoridagi predmetlarning qismi ham shu nom bilan atalgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da oyoq so‘zi:

Odam, havon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmlashi uchun xizmat qiladigan a‘zo.

Stol, stul, so‘ri, karavot kabi buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi. Oxir, odoq ma‘nosida: qish kunlarining oyog‘i, ko‘cha oyog‘i.

Fasl, davr va sh.k.ning oxiri, tugayotgan vaqti. Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. A. Abdulla Qodiriy, “O‘tgan kunlar”. Chet, chekka; quyi tomon; etak. Ekinzorning oyog‘i. Yerning oyog‘i. Uyning, xonaning eshikka yaqin o‘rni; poygak; zid. to‘r.

Shuningdek, frazeologizm tarkibida turli ma‘nolarni ifoda etadi: Bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda (maqol) – juda qarigan. Oyog‘i olti, qo‘li yetti – g‘oyat xursand. Yolg‘iz oyoq – bechora. Oyog‘i osmondan kelmoq – qulamoq, yiqildi, ishi chappa. Oyog‘i kuygan tovuqday – bezovta, o‘zini har tomonga urmoq va boshqa ma‘nolari qayd qilingan.

Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” [Toshkent – 1992] da oyoq so‘zi qatnashgan ellikdan ortiq frazeologizm ma‘nolari izohlangan. Lingvistik metafora usulida qo‘llangan so‘z ma‘nosi boshqa so‘zlardan iborat bo‘lgan birkma ichida kelgandagina seziladi. Chunonchi oyoq deyilganda odam va boshqa jonivorlar gавdasini ko‘tarib yurishi yoki o‘rmlashi uchun xizmat qiladigan tana a‘zosi tushiniladi. Yuqorida keltirilgan boshqa ma‘nolar esa: so‘ri oyog‘i, qish oyog‘i, uy paygaki ma‘nolari xayolga ham kelmaydi. Oyoq so‘zining metafora usulida nom ko‘chishi nutq jarayonida matn ichida yanada aniqroq namoyon bo‘ladi.

Metafora asosida nom ko‘chishi – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so‘zning) o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa narsa, belgi, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo‘llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o‘tishi (aylanishi) demakdir.

Ikki qoshing o‘sma birlan bo‘ldi juft nargisli barg,

Ikki barging qoshida men titrayman misli barg [5; 255].

Birinchi misradagi qosh oxirgi misradagi barg soʻzlari oʻz maʼnosida qoʻllangan. Ikkinchi misrda esa yorning qoshi nargis gulning yaprogʻiga oshiqning esa yor oldida hayajonga tushib titrashi shabbodada bargning titrashiga oʻxshatilgan hamda metafora usulida nom koʻchirilganligi koʻzga tashlanadi. Yana qoshlarning bir-biriga yaqin, yonma-yon turishiga koʻra bu soʻz koʻmakchilashib yon, oldiga, huzurida, ixtiyorida maʼnolarida qoʻllanib metafora usulida nom koʻchirilgan.

Shuningdek, qosh soʻzi yana: egarning oldingi baland qismiga oʻyib solingan gul: baʼzi narsalarning old qismi, turtib chiqqan joy (ayvonning qoshi), uzuk, isirgʻa kabi buyumlarga oʻyib solingan yoysimon gul – bezak (tillaqosh) tashqi koʻrinishi jihatdan insonning qoshiga oʻxshashligi tufayli qosh deb ataladi va shu yoʻsinda nom koʻchiriladi.

Mumtoz sheʼriyatda faol qoʻllanuvchi bulbul, toʻti, toʻvus oʻhu, parvona kabi zoomorfizmlar ham koʻchma maʼnoda ishlatilib, yorga oʻxshatilgani koʻzga tashlanadi. Jumladan, bulbuldagi xushxonlik, toʻtidagi goʻyolik, toʻvudagi goʻzallik, parvonadagi muhtalolik, oʻhudagi noziklik hamda chiroy yor(maʼshuqa)ga nisbat berilib, metaforik usulda nom koʻchiriladi va yor soʻzining oʻziga xos sinonimik qatorini yuzaga keltiradi.

Lingvistik metafora tilda muhim oʻrin tutadi. U bir jihatdan badiiy adabiyotda, xalq ogʻzaki ijodida, oddiy soʻzlashuv tilida taʼsirchanlikni oshirib emotsional-ekspressiv vosita sanalsa, ikkinchi tomondan, tilning lugʻat tarkibi va uning maʼno qamrovlarini boyitib boruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Poetik metafora. Poetik metafora asosida nom koʻchishi ikki predmet yoki hodisaning odat tusiga kirmagan, ularning yaqinligi va oʻxshashligini sezish ancha qiyin boʻlgan shakli, rangli xarakterlar – xususiyati va shu kabi ichki va tashqi holatlariga qarab oʻxshatish prinsipi yotadi. Shoirilar, yozuvchilar, xalq baxshilari – badiiy soʻz ustalari poetik metaforadan sanʼatkorona foydalanib, jozibador, taʼsirchan, kishida his – hayajon qoʻzgʻatuvchi soʻz va iboralar orqali emotsional-ekspressiv belgi anglatuvchi til birliklarini hosil qiladi. Masalan, gʻazalnavis shoir Erkin Vohidov oʻz ijodida poetik metaforalarga keng oʻrin berib, kishida his hayajon, zavq va shavq uygʻotuvchi hissiyot paydo qilishga erisha olganligiga guvoh boʻlamiz:

*Rost, g'azal avjida barcha oy ila Zuhra emas,
Ko'p erur somonchilar ham she'riyat osmonida* [5; 238].

Baytda ko'zga ko'ringan, xalq orasida tanilgan hamda e'tirof etilgan shoirlarni Oy bilan Zuhraga o'xshatsa, hali o'z ijodi bilan tanilmay, obro'- e'tibor topmagan shoirlar ham anchagina bo'lib, ularni koinotdagi – “somonchilar yo'li” dagi xira yulduzlarga o'xshatadi va a'lo darajada poetik metafora yaratadi. Yana bir misol:

*Senga yulduzli samon sovg'a aylarman desam,
Nozlanib, o'ldimmi deydi bu cho'tir ro'ymol uchun* [5 ;292].

Baytda samoga ro'ymolni, yulduzlarga cho'tirlikni o'xshatib, she'rxon xayoliga kelmagan shoir o'ziga xos original metafora yarata olgan. Bu misollardan ma'lum bo'ldiki, poetik metafora predmetlar, belgi va harakat – holatlarning yaqinligi yoki o'xshashligini sezish bir qarashga ancha murakkab bo'lgan, qandaydir tashqi yoki ichki belgi, shuningdek sifat o'xshashligiga asoslanadi. Keyingi baytda ma'shuqaning o'z yoriga nozlanib, yulduzli samoning cho'tir ro'ymolga o'xshatish shoir uslubiga xos, muallif tomonidan yaratilgan individual poetik metaforadir.

Poetik metafora usuli bilan yangi ma'noni vujudga keltirish so'z ustasidan juda nozik, ammo kuchli ehtiros, ob'yektning eng nozik tomon-larini seza bilish, his qilish va tilda mavjud bo'lgan barcha emotsional-ekpressiv belgilardan o'rinli foydalanish kabi xislatlarni bilish talab qilinadi. Quyidagi misrada:

She'r ipi nogoh qalamning, ignasidan qochadir [5; 314].

She'r tizimini (she'rdagi so'zlar qatorini) ipga, qalamni esa ignaga o'xshatib kuchli ehtirosli o'ziga xos poetik metafora hosil qilingan. Poetik metafora shaklida qo'llangan so'z ma'nosi badiiy asar matnida, nutq jarayonida vujudga kelib, o'sha matn yoki nutq jarayonidagi ma'nosi tushuniladi xalos, boshqa vaqtda sezilmaydi. Shuning uchun ham u o'z yaratuvchisi (muallifiga) ega. Ularni alohida shaxslar - badiiy so'z ustalari tomonidan yaratilgan metaforalar ham deb yuritiladi. Bu xil metaforalarda ma'no beqaror bo'lib, o'zgarib turadi. Ularning ba'zilar vaqt o'tishi bilan xalq tiliga singib ya'ni lingvistik metafora qatoriga o'tadi. Ular milliy til nutq jarayonda ma'no qamrovining kengayishi tufayli umumiste'molda qo'llanuvchi ko'p ma'noli so'zlar qatoridan ham o'rin olishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidash lozimki, lingvistik va poetik metaforalarning vujudga

kelish yo‘llari va ularni bir – biridan farqlash masalasi ancha murakkabdir. Ko‘pgina tilshunos olimlarimiz lingvistik metafora bilan poetik metaforani bir biridan farqlash lozimligini uqtirib o‘tish bilan birga, bu ikki hodisa juda shartli va nisbiyligini ta’kidlaydilar. Poetik metaforaning eng yaxshi namunalari davr o‘tishi bilan umumxalq tiliga singib, lingvistik metaforaga aylanishi mumkin degan to‘g‘ri va o‘rinli fikrni qayd qilib o‘tadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979.
3. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
4. Is’hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
5. Rahmonov V. She’r san’atlari. – Toshkent: Yozuvchi, 2001.
6. Vohidov E. Saylanma, Muhabbatnoma, Ikki jildlik, 1-jild. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1986.
7. Vohidov E. Saylanma, Sadoqatnoma, Ikki jildlik, 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1986.
8. Vohidov E. Saylanma, Ishq savdosi, Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2000.
9. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, Uchinchi jild.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
11. Sharq mumtoz poetikasi. Birinchi kitob (Hamidulla Boltaboyev talqinida). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
12. To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov: hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. –Toshkent: Ozbekiston, 2018.
13. Vohidova Gulchehra Qalbim ardog‘i. O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov rafiqasi nazdida. –Toshkent: Mashhur-press, 2020.
14. Самандарова, Л. (2020). КОМИЛ АВАЗНИНГ “СОЗАНДА” РОМАНИДА ФОЛЬКЛОРИЗМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ МАҲОРАТИ. II БӨЛИМ,

314.

15. Abdullayeva, M. (2022). IJOBIY MUNOSABAT IFODALOVCHI RUHIY JARAYON FE'LLARI (ABDULLA QODIRIY ROMANLARI ASOSIDA).

Science and innovation, 1(B8), 2428-2433.

16. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.